

LINGVISTIKA LINGUISTICS

Ergash Umarov

(Toshkent, O'zbekiston)

til@sarkor.uz

Navoiy davridagi Hirot o'zbeklari tili¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Alisher Navoiy davridagi Hirot o'zbeklari tilidagi unli harflarning talaffuziga doir ma'lumotlar yoritilgan. Tekshirish uchun Husayn Boyqaro buyrug'i bilan Toile Imon Hiraviy tomonidan Navoiy asarlari uchun tuzilgan "Badoyi' ul-lug'at" kitobi manba sifatida olingan. Lug'atshunosning Hirot o'zbeklari so'z boyligi, talaffuz me'yorlari borasida bergan aniq ma'lumotlari Navoiy asarlaridagi so'zlarni to'g'ri o'qishda qo'l kelishi uqtirilgan. Unli tovushlar talaffuziga monand Navoiyning qofiya qo'llash mahorati tahlil qilingan. Ayrim so'zlarning Qashqadaryo, Surxondaryodagi barlos, qovchin, chig'atoy, qo'ng'iro't kabi urug'lar tilida hozir ham qo'llanilishi shoir asarlaridan keltirilgan misollar orqali ko'rsatilgan. Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda "Badoyi' ul-lug'at"dan foydalanish zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: sheva, lug'at, unli tovushlar, jarangli undoshlar, "Badoyi' ul-lug'at", o'zbek urug'lari.

The Language of the Herat Uzbeks in the Navoi's Period

Abstract

This article provides information on the pronunciation of vowels in the Uzbek language spoken in Herat during the reign of Alisher Navoi. The book "Badoi-ul-lugat", compiled by Toile Iman Hirawi for the works of Navoi by order of Hussein Boykaro, was taken as a source for verification. It is said that the lexicographer's accurate information about the vocabulary and pronunciation norms of the Uzbeks of Herat was useful for the correct reading of words in the works of Navoi. Navoi's rhymes are analyzed

¹ Mazkur maqola Ergash Umarov tomonidan e'lon qilingan "O'zbek so'zlari Navoiy davrida qanday jaranglagan?" va uning mantiqiy davomi bo'lgan "Navoiy davridagi Hirot o'zbeklari tili" nomli maqolalar asosida tayyorlandi.

Manba: Umarov E. 1985. "Ўзбек сўзлари Навоий даврида қандай жаранглаган?" *Шарқ юлдузи* 8: 164-168. Тошкент; Umarov E. 1986. "Навоий давридаги Ҳирот ўзбеклари тили". *Адабий мерос* 4 (38): 39-44. Тошкент.

according to vowel pronunciation. The fact that some words are still used in the language of the tribes of Kashkadarya, Surkhandarya, Barlos, Kovchin, Chigatay, Kungrat is illustrated by examples from the poet's works. It was noted that when compiling the scientific-critical text of Navoi's works, it is necessary to use "Badoi-ul-lugat".

Key words: dialect, dictionary, vowels, consonants, "Badoi-ul-lugat", Uzbek seeds.

Kirish

O'zbek xalqi boshqa turkiy xalqlardan o'zining boy yozma yodgorliklari bilan ajralib turadi. Bu qo'lyozmalarning bir qismini qadimgi lug'atlar tashkil qiladi. Ana shu qomuslar tufayli, masalan, "qurun" so'zi ilgarigi davrlarda vaqt, quda-anda birikmasidagi "quda" – kuyov taraf vakillari, "anda" – kelin taraf vakillari, "chotqol" – notekis kabi ma'nolarni anglatishini bilib olamiz.

Ana shu lug'atlar tufayli biz Alisher Navoiy davridagi o'zbeklar tili haqida noyob ma'lumotlarga egamiz. Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar orasida XV asr Hirotida yaratilgan Toile Hiraviyning "Badoyi ul-lug'at"i alohida o'rin tutadi. Bu lug'at bevosita shoir xotirasini abadiylashtirish maqsadida uning vafotidan keyin Sulton Husayn Boyqaro buyrug'i bilan amalga oshirilganligi va XV asr eski o'zbek tili haqida noyob ma'lumotlarni saqlab qolganligi bilan katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Uni o'rganish bugungi kundagi ko'pgina so'zlar o'sha davr Hirot o'zbeklari tilida boshqacharoq talaffuz qilinganligini ko'rsatadi.

Navoiy davridagi fonetik xosliklar

Alisher Navoiy davrida fonetika sohasida bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanadigan o'n to'rtta unli tovush bo'lgan. Ana shu uzun-qisqalik shoirlarga aruzda ijod qilish uchun keng imkon yaratib bergan. Masalaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, eski o'zbek tilida **o** unlisi bo'lmagan. Masalan, bugungi *bosh*, *qosh*, *ota*, *bormoq*, *bo'lmoq*, *qishloq* tipidagi so'zlar Navoiy davrida *bash*, *tash*, *qash*, *ata*, *barmaq*, *bo'lmaq*, *qishlaq* shaklida talaffuz qilingan. Eski o'zbek tilida **o** tovushining yo'qligi shoirlarga turli so'z o'yinlari, jumladan, iychom poetik san'ati yaratish imkonini bergan.

Ma'lumki, bu san'at ko'p ma'noli so'zlar asosida vujudga keladi. Masalan, XV asrning yetuk lug'atshunosi Toile' Hiraviy *qalqan* so'zini izohlar ekan, u *qolgan* va *qalqon* ma'nolarini anglatadi va quyidagi baytda Navoiy bu so'z ma'nolari asosida iychom san'ati yaratgan deb ko'rsatadi:

*O'qi baskim tandadur, yitmas tanimga o'zga zahm,
Ulki o'q deb nala qildim emdi **qalqandur** manga.*

Navoiy *qalqan* so'zining ikki ma'noligi asosida ajoyib so'z san'ati yaratgan. So'zning *qolgan* ma'nosi hisobga olinsa, bayt quyidagi mazmunni anglatadi: *o'q deb nola qiluvdim, tanimda yorning qolgan o'qi bor, endi tanamda boshqa zahm bo'lmaydi.*

Agar so'zning *qalqon* ma'nosini hisobga olsak, bayt mazmuni quyidagicha bo'ladi: *yorning o'qi tanamda, endi o'zga zahm bo'lmaydi, chunki yorning o'qi menga qalqon.*

Xuddi shuningdek, eski o'zbek so'zlarida "o" tovushi bo'lmaganligi sababli *qanda* so'zini Navoiy quyidagi baytda qon ichida va qayerda ma'nolarida qo'llaydi:

*Navoiy qan yash ichra g'arqu yari may ichib daim,
Demishkim rizq aylabtur ko'rung, men **qanda**, ul **qanda**.*

Agar so'zning birinchi ma'nosi – *qon ichida* hisobga olinsa, baytni quyidagicha izohlash mumkin: Navoiy qon yoshiga botgan, yori esa doim may ichish bilan ovora, Navoiyning rizqi shunday yaratilgan ekanki, u qon ichida, azobda, yori esa qayerdadir beparvo, yori esa boshqa yerlarda yuribdi.

Agar mayning ramziy qizillik ma'nosini hisobga olsak, bu baytni yana quyidagicha izohlash mumkin: Navoiy qon yoshiga botgan, yori ham may ichida, ularning rizqlari shunday yaratilgan ekan: *Navoiy ham qon ichida, yori ham qon ichida.*

"O" tovushi yo'qligi tufayli *ayaq* so'zi eski o'zbek tilida *piyola* va *oyoq* ma'nolarini anglatgan. Quyidagi baytda Alisher Navoiy so'zning bu ma'nolaridan ustalik bilan foydalanib, ajoyib so'z o'yinini yaratgan:

*Xumar ara tiladim saqiyu, qadah yuz shukr,
Ki ulki men tiladim keldi o'z **ayag'i** bila.*

Ayak so'zining *piyola* ma'nosi hisobga olinsa, baytni quyidagicha izohlash mumkin: xumor paytida soqiy va bir *piyola* may so'radim, yuz marta shukrki, soqiy *piyolasi* bilan keldi. Agar so'zning *oyoq* ma'nosi hisobga olinsa, bayt quyidagi ma'noni anglatadi; *xumor paytida soqiy va bir piyola may so'radim, yuz shukrki, soqiy o'z oyog'i bilan keldi.*

Navoiy davridagi Hirot o'zbeklarining talaffuzidagi o'ziga xos xususiyatlardan yana biri, bu davrdagi ayrim shevalarda til oldi, jarangli "j" tovushi keng ishlatilgan. Bugungi *kecha, barcha, muncha, soch* so'zlari Hirot o'zbek shevalari tilida Lutfiy, Navoiy asarlarining

noyob qo'lyozmalaridan ko'rinishicha, *keja, barja, munja, saj* shaklida talaffuz etilgan. Tole Hiraviy ham eski o'zbek so'zlaridagi tovushlar haqida ma'lumot berar ekan, bugungi *chigit, soch, chidamoq* so'zlari XV asrda *jigit, aj, jidamoq* shaklida talaffuz etilganligini ko'rsatadi. Xuddi shu holni **"b"** tovushi misolida ham aytishimiz mumkin.

Hirotdagi ayrim shevalar tilida **"b"** tovushi keng ishlatilgan. Bugungi *ko'p, ko'pmoq, kiprik* so'zlari *ko'b, kubmak, kibruk* shaklida talaffuz etilgan. Kezi kelganda shuni aytib o'tish kerakki, bu hol Alisher Navoiy tilining dialektal asoslari ichida muhim rol o'ynaydi, hozir Qashqadaryo, Surxondaryo hududlarida yashovchi o'zbek shevalari tilida hozir ham bor: *birinj* (ad. orf. guruch); *tinj* (ad. orf. tinch) *burdjak* (ad. orf. burchak). Leksika sohasida ham Hirot o'zbeklari tilida o'ziga xos xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, *burgut* so'zini hirotli o'zbeklar *burkut* shaklida talaffuz qilganlar:

*Yuqoridin indi ikki burkut,
Qildilar ushul hamamani qut.*

Shuningdek, *o'rtoq, bo'rk, bo'g'u, o'xshamoq, to'rt* so'zlari *urtaq, burk, bug'u, uxshamoq* shaklida talaffuz etilgan.

Alisher Navoiy asarlarining XV — XVI asrlarda ko'chirilgan qo'lyozmalarini o'rganish Hirotdagi o'zbek shevalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu shevaga xos xususiyatlar Tole Hiraviy tomonidan ham qayd etilgan. Bu sheva farqlaridan biri so'zlarni "i" va "e" bilan talaffuz qilinishida ko'rinadi. Masalan, bir xil sheva vakillari *xalq* ma'nosidagi so'zni *el* desalar, ikkinchilari uni *il* deb talaffuz qilganlar. XV asrning yetuk lug'at-shunosi Tole Hiraviyning ko'rsatishicha, Hirot o'zbeklari XV asrda ko'pgina so'zlarni "i"li shaklda talaffuz etganlar, *king (keng), igma (egma), tigru (tegru), ting (teng)* kabi, Hirotda yashagan o'zbeklar XV asrda *egar* so'zini *igar, telba* kalimasini *tilba, ellikni illik* shaklida talaffuz etganlar. Tole' Hiraviy ma'lumotlari qanchalik to'g'ri ekanligini Alisher Navoiy asarlaridagi qofiyalar ham tasdiqlab turibdi. Masalan, bugungi paroxod ma'nosidagi *kema* so'zi Tole' Hiraviy ma'lumotiga qaraganda Hirot o'zbeklari tilida *kima* shaklida talaffuz qilingan. So'zning bu shakli Alisher Navoiyga o'z asarlarida *nima* so'ziga qofiya qilish imkonini bergan:

*Su uzra surub benihoyat kima,
Solib anda bori keraklik nima* (Xamsa, 669).

*Dedi: aylab murattab kimalarni,
Soling anda keraklik nimalarni* (Xamsa, 226).

*Deyilgan bahr aro har nav'i **kima**,
Ichinda ancha xalqu ancha nima* (Xamsa, 230).

Navoiy asarlarida, xususan, "Xamsa" dostonlarida *kema* so'zi ko'p uchraydi:

***Kemasi** lekin ul taraf ketti
Ki burun o'g'li kemasi yetti.*

*Tushub daryo kibi ko'ngli aro jush
Kema og'zidek og'zi lek xomush.*

Lug'at muallifi bu so'z XV asrda, Hirot o'zbeklari tilida *kima* shaklida bo'lganligini ko'rsatadi. Navoiy asarlaridagi qofiya ham bu so'zni haqiqatan *kima* shaklida bo'lganligidan dalolat beradi. Shoir "Saddi Iskandariy"ning o'ttiz uchinchi va "Farhod va Shirin"ning yigirma yetti, yigirma sakkizinchi boblarida uni *nima* so'ziga qofiya qiladi:

*Su uzra surub benihoyat **kima**
Solib anda bori keraklik **nima**.*

*Dedi: aylab murattab **kimalarni**
Soling anda keraklik **nimalarni**.*

*Deyilgan bahr aro ham nav'i **kima**
Ichinda oncha xalqu oncha **nima**.*

Alisher Navoiy asarlaridagi ayrim qofiyalarga e'tibor berilsa, Hirot o'zbeklari tilida so'zlarning "i" li varianti haqiqatan ham kuchli bo'lganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Mahbub ul-qulub"dan olingan quyidagi baytni oladigan bo'lsak:

*Xushtur xiradi ko'p el so'ziga kirmak,
Ne bozi yemak, xushu po bozi **birmak**.*

Shoir o'z adabiy-tanqidiy qarashlaridan kelib chiqib qofiyada yuz foiz fonetik uyg'unlikka erishish maqsadida *kirmak* so'ziga *birmak* (bermak) so'zini qofiya qiladi. Ishonch bilan aytish mumkin, Alisher Navoiy *kirmak* so'ziga hech mahal *bermak* so'zini qofiya qilmagan. Agar bu so'zlar qofiya qilinsa, unda saktalik paydo bo'ladi. Chunki fonetika fanidan ma'lumki, "i" tovushining talaffuziga 150 millisekund, "ye" tovushining talaffuziga 200 millisekund vaqt ketadi.

Agar biz so'zlarni "i" bilan talaffuz etish Mahmud Koshg'ariy qayd etishicha kanjaklarga oid ekanligini nazarga olsak, u holda kanjaklar tili Alisher Navoiy tili dialektlari ichida muhim rol o'ynagan,

degan fikrga olib keladi. To'g'ri "Badoyi ul-lug'at"da "e" bilan talaffuz qilingan so'zlar ham uchraydi: *keyav* (kuyov), *kelin*, *keyik*, *keyin*. Lekin bu xildagi so'zlar lug'atda kam.

*Girdida **keyik** to'la yabani,
Ul o'rtada aylakim shabani.*

*Ro'ba ro'bo'lqach yo'lung g'am shami allimdin kitar,
Saya tushkandin keyin xurshid bo'lqach o'trudin.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XV asr Hirot o'zbeklari tilidagi so'zlarning "i" va "e" bilan talaffuz qilinishi o'sha davr uchun normal til hodisasi bo'lgan, chunki bu hodisalar VII – VIII asr Urxun-Yenisey yodgorliklari tilida ham mavjud edi. Shuningdek, Navoiyning mo'tabar qo'lyozmalari ayrim so'zlarining "a"lik shaklida ishlatilganligini ko'rsatadi. Bu ham XV asr Hirot o'zbeklariga xos xususiyat hisoblanadi. Misollardan ko'rinishicha, bugungi adabiy tildagi *tugma* so'zi *tagma* shaklida talaffuz qilingan:

*To'ni yashil xullagir shevasi,
Takmalari bo'ldi aning mevasi.*

Quvmoq so'zi ham qavmaq holida uchraydi.

*Ey tifllar **qavqan** sayi Majnun diban,
Bu bahana birla o'z laylivashing sari yo'run.*

Cho'pon kalimasi Hirot o'zbeklari tilida *shaban* shaklida uchraydi. Bu hol uni *pasban* so'ziga qofiya qilinishida ham ko'rinadi:

*Bo'rigaki qo'y baqmaki peshadur,
Shaban mehnatidin ne andishadur.*

Navoiy tovushlar uyg'unligini saqlash uchun bu so'zga quyida *yaban* (cho'l) va *bog'bon* so'zlarini qofiya qiladi:

*Qurtdek bo'ri birla to'ldi **yaban**
Dema qo'y balki tu'ma bo'ldi **shaban**.*

*Bo'ldi raiyat galavu sen **shaban**,
Ul shajari musmiru sen **bog'bon**.*

Shuvoq "Layli va Majnun"da *shabaq* shaklida uchraydi:

*O'rgamchi **shabaqqa** julni tirmab,
Tumshug'ini rishta birla chirmab.*

Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini aniqlash sohasida anchagina ilmiy ishlar yozilgan bo'lishiga qaramasdan, bu masala uzil-kesil hal qilinmagan. Bu tilshunos olimlar oldida turgan mu-

him ishlardan biri hisoblanadi. Bu masalani hal qilinishi hanuzga qadar Alisher Navoiy uyg'ur shoiri, Alisher Navoiy turk shoiri degan noto'g'ri da'volarni ilmiy asosda hal etishga yordam berar edi.

Ayrim so'zlar talaffuzi xususida

Chunonchi, *to'rt* so'zi, To'le Hiraviyning ko'rsatishicha, Navoiy yashagan davrda *to'rt* shaklida talaffuz qilingan ekan, *o'tin* so'zi *utin* shaklida bo'lgan. Hozirgi *o'lim*, *o'rtoq* so'zlari *ulim*, *urtoq* shaklida qo'llanilgan ekan. Askar, qo'shin ma'nosidagi *cherik* so'zi *chirik* tarzida ifoda etilgan. Qisqasi, "Badoyi ul-lug'at" ma'lumotlariga qaraganda, unda juda ko'p so'zlar shoir asarlarining nashrlarida bugun, biz ishlayotgandan boshqacharoq talaffuz qilingan ekan. O'quvchilarda, xususan, navoiyshunoslarda savol tug'ilishi mumkin. Nahotki yuqoridagi so'zlar XV asrda boshqacha talaffuz qilingan bo'lsa?

To'le Hiraviy adashmadimikan? Navoiy asarlari, sheva materiallari, eksperimental fonetika ma'lumotlari lug'atshunos ma'lumotlarining to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Chunonchi, To'le Hiraviy bugungi *o'lim* so'zini XV asrda *ulum* bo'lganligini ko'rsatadi. Shoir asarlaridagi qofiyalar ham buni to'la isbotlaydi. Navoiy *ulum*, *uldum*, *ulmak* so'zlarini o'z asarida faqat tarkibida **u** bo'lgan so'zlar bilan qofiya qiladi, ya'ni shoir qofiyalar tarkibidagi tovushlarning bir-biriga yuz foiz uyg'un bo'lishiga harakat qilgan. Masalan, "Lison ut-tayr"da bu so'z *ushtulum* (javr, jafo) so'zi bilan:

*Anglabon onsiz tiriklikni **ulum**,*
*Jonga aylab hajrida yuz **ushtulum**.*

"Farhod va Shirin" dostonida *qutuldum*, *kulmak* so'zlari bilan qofiya bo'lib kelgan:

*Dedi jonparvar anfosingdan **uldum***
*Uningdin umr ranjiddin **qutuldum***
*Kishi ko'rgaymu mundoq turfa **ulmak***
*Ulusdin yig'lamoq o'rniga **kulmak**.*

Bu xildagi misollar shoir asarlarida juda ko'p uchraydi. Agar yuqoridagi so'zlar XV asrda *o'lum*, *o'ldum*, *o'lmak* shaklida bo'lganida edi, shoir intilgan yuz foiz fonetik uyg'unlik, to'liq qofiya buzilgan bo'lar edi. Agar Navoiy asarlaridagi qofiyalarga diqqat qilinsa, shoir *in* so'ziga juda ko'p joyda faqat tarkibida **u** unlisi bo'lgan so'zlarni qofiya qilgani seziladi. Masalan, "Lison ut-tayr" dostonining "Qushlarning Fano vodiysining nihoyatidan baqo mulkidan nishon topmog'lari" bo'limida bu so'zga *butun* so'zini bugungi *o'tin* so'ziga

juda ko'p joyda faqat tarkibida **u** unlisi bo'lgan so'zlarni qofiya qilgani seziladi. Masalan, "Lison ut-tayr" dostonining "Qushlarning Fano vodiysining nihoyatidan baqo mulkidan nishon topmog'lari" bo'limida bu so'zga *butun* so'zini:

*Jism aro bir parlari qolmay **butun***

*Pora-pora uylakim qoqshol **utun**.*

"O'zining shayx ruhi madadidin anga tatabbu' qilg'ong'a qaq-nus timsoli" qismida **u** ni uzun, **un** so'zlariga:

*Beshada umri bo'lur ermish **uzun***

*Umrida shug'li oning yig'moq **utun**.*

*Umrida ul dog'i jam' aylab **utun***

*Ul ish asnosida tortib dilkan **un**.*

"Bu kitob nazmida o'z munosabatining taqribi" va "Xamsa" dostonlarida bu so'zni *tutun* so'ziga qofiya qiladi:

*Ham qurutsa-yu oni qilsa **utun***

*Yorug'ay vayronasi bo'lmay **tutun**.*

*Kilki ulus o'rtamagiga **utun***

*O'tkarib ul o'ti falakdin **tutun**.*

Bu misollar, shuningdek, Tole Hiraviy ma'lumotlari bugungi o'tin so'zini ham Navoiy davrida *utun* shaklida bo'lganligini ko'rsatadi. Shuningdek, lug'at materiallari joy ma'nosidagi bugungi o'run so'zi XV asrda *urun* shaklida bo'lganligini ko'rsatadi. So'zning bu shakli tufayli Navoiy "Xamsa" dostonlarida o'ndan ortiq marta uni faqat *burun* so'ziga qofiya qilgan:

*Nima ofarinishda tutmay **urun***

*Ki tebranmish o'lg'ay bu yeldin **burun**.*

*Kerak topib ul naqb boshin **burun***

*Tikib chodir ul yerda tutqay **urun**.*

Lug'atshunosning ko'rsatishicha, bugungi *kuyov* so'zi Navoiy davri Hirot dialektida *keyav* (кэяв) shaklida talaffuz qilingan. Ushbu so'zning faqat shu shakligina uni "Layli va Majnun"ning o'ttizinchi bobida shoirga *ikav* so'ziga to'liq qofiya imkonini bergan:

*Ko'p-u ziynat-u zeb etib **ikavni***

*Gulchehra kelin bilan **keyavni**.*

Tole Hiraviy XV asrda *qush*, *tayr* (qush) va *piyola* ma'nolarini

anglatgan va quyidagi baytda bu soʻzning ikki maʼnoligidan foydalalanib, Navoiy iychom sanʼati yaratganligini koʻrsatadi:

*Ey, Navoiy, demakim jonu koʻngulni naylading
Ikisin qildim fido, chun boda nushim tutti **qush**.*

Shu gʻazaldagi bu soʻzga qofiya boʻlgan *xamush, xurush, mayfurush, surush* soʻzlari ham hozirgi *qoʻsh* soʻzi XV asrda *qush* boʻlganligini tasdiqlaydi. “Xamsa”dagi qofiyalarga eʼtibor berilsa, Navoiy juda koʻp joyda bu soʻzga faqat *xush* soʻzini qofiya qiladi:

*Ul bodadin oʻyla tut manga **qush**,
Kim yodima hargiz oʻtmasun **xush**.*

Tole Hiraviy bugungi *qoʻy* (uy hayvoni) soʻzi XV asrda *quy* shakliga ishlatilgan deb koʻrsatadi. “Layli va Majnun” dostonidagi *oshnoroʻy* qofiyasi buni tasdiqlaydi:

*Oligʻa yetishdi bir suruk **qoʻy**,
Choʻponi qurundi **oshnoruy**.*

Hozirgi *qoʻshiq* soʻzi ham, Tole Hiraviyning xabar berishi-cha, eski oʻzbek tilida *qoʻshuq* shaklida talaffuz qilingan. Bu soʻzning “Badoyi ul-vasat”ning *qof* harfiga keltirilgan gʻazalda *yaruq, tavuq, yazuq, mamuq, suruk, achuq* soʻzlari bilan qofiyalanishi uning XV asrda haqiqatan ham *qushuq* shaklida boʻlganini tasdiqlaydi. Lugʻatni sinchiklab oʻqish Navoiy asarlarining tekstologik tadqiqotlariga jiddiy tuzatish kiritish kerakligini koʻrsatadi. Ayrim gʻazallarda bir soʻz bir necha soʻzning tovush tuzilishiga aniqlik kiritishi mumkin. Masalan, agar *keng* soʻzining fonetik tuzilishi bizga lugʻatdan *king* ekanligi maʼlum boʻlsa, “Badoyi ul-vasat”dagi quyidagi gʻazalda unga qofiyadosh boʻlib kelgan *deng, yeng* (*yemoq, meng, eng, yeng* (*koʻylak yengi*), *teng* soʻzlari ham *ding, ting, ming, ying* shakllarida boʻladi:

*Koʻrgan el bedodi hijrondin meni yer birla **teng**
Koʻrsangiz ishq ahlini, mendin oʻpub yer, ishq **deng**.*

*Sarv teng tutsa oʻzun qadding bila, ul navʼdur
Kim giyoh oʻlgʻay qad ichra sarvi raʼno birla **teng**.*

*Gʻuncha ichra jola lof ursa tishing birla ne tong
Bu adam kunjiga qolib, ul topibdur yerni **keng**.*

*Turfadurkim, kufr shomi rafʼ oʻlub, qilgʻay tuluʼ
Subhi imon zulfin ochib, oshkor etsa ul **eng**.*

*Turfaroq bukim, saodat subhida chiqmish degay
Tiyra baxtim axtarikim, koʻrsa ul eng uzra **meng**.*

*Aql vasvosi xarob etmish meni hujjat bila
Soqiyo bir aysh jomi tut mangau oni **yeng**.*

*Ey, Navoiy yengda pinhon etma ul oy ruq'asin
Chun sanga uldur hamisha ashk oritmoq birla **yeng**.*

Demak, bir so'z g'azalning o'zida beshta so'zning fonetik tuzilishiga aniqlik kiritmoqda. Doston va ayrim g'azallardagi bir so'z bitta so'zning fonetik tuzilishiga aniqlik kiritishi mumkin. Masalan, bugungi *ushatmoq* so'zining o'zagi XV asrda *ushat* bo'lgan bo'lsa, quyidagi baytda unga qofiyadosh bo'lgan *o'rn*at so'zi ham *urnat* bo'ladi:

*Demon ul oy o'qin, ey do'st, suvur, yo'qsa **ushat**
Kim qoqib toshlar ila, zor tanimga **urnat**.*

Chunonchi quyidagi baytdagi narsa ma'nosidagi *nima* so'zi:

*Yibordim qoshingg'a munosib **nima**
Buyun to'lg'ama, nomunosib **dema**.*

Hozirgi *demoq* so'zining buyruq shakli *dima* bo'lishi kerakligini taqozo qiladi. Haqiqatan ham bu so'z XV asrda shu shaklda bo'lganligini Toile Hiraviy "Badoyi ul-lug'at"da ko'rsatib o'tgan. *Demoq* so'zini XV asrda *dimoq* shaklida bo'lganligi o'z navbatida "Lisonut-tayr"da unga qofiyadosh bo'lib kelgan *emas*, *emish* so'zlarini *imas*, *imish* bo'lishligini taqozo qiladi:

*Odam o'lg'on zebu zohirin **dimas**
Kimki andin faxr etar – odam **imas**.
Voqe' o'lmish qonu bu bois **imish**
Kim muni maqtul badhay't **dimish**.*

Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da bugungi *termoq* so'zi *tirmak* bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, quyidagi qit'adagi *bermak* so'zi ham *birmak* bo'lishi kerak:

*Siyumni sochquchi mingdin birdir
O'zgalarning ishi keldi **tirmak**.
Ul jihatdin bududur odatkim
Olmoq osonduru mushkil **birmak**.*

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, XV asr eski o'zbek tilidagi ko'pchilik so'zlar biz tasavvur qilgandan boshqacharoq ekan.

O'zbeklarning barlos, qovchin, chig'atoy, qo'ng'irot urug'lari tilida saqlanib qolgan ayrim so'zlar xususida

Biz olimlarimiz diqqatini Alisher Navoiy tilidagi anchagina so'zlar Qashqadaryo, Surxondaryodagi barlos, qovchin, chig'atoy, qo'ng'irot kabi urug'lar tilida saqlanib qolganligiga qaratmoqchimiz. Masalan, "Layli va Majnun"dagi ayrim o'simlik va hayvonot dunyosiga oid so'zlar ko'proq shu zonada yashovchi o'zbeklar tiligagina xos. Chunonchi, dostonning o'n ikkinchi bobida *qo'zi qulog'* o'simligi tilga olinadi:

*Mehr istadi chun hamal farog'i,
Dasht uzra butar qo'zi qulog'i.*

Tabiatshunos M.To'ychiyevning yozishicha, ilmiy adabiyotlarda *plomis* deb atalgan bu o'simlik O'zbekistonning janubidagi adir va tog' zonalarida uchraydi. Tuproqning posboni hisoblangan bu chorva ozuqasi erta bahorda tez rivojlanib 160–190 donadan gul va meva tugadi.

Shuningdek, buldurug'lar oilasiga mansub, uzunligi 35-38 sm. og'irligi 350–400 gr. keladigan qorin tarafi qora bo'lgan qora bag'ir qushi ham Qashqadaryo, Surxondaryo zonalarida uchraydi:

*Chun bargi tusharga mayl qildi,
Bag'ri qora dasht uza yoyildi.*

Qozon osib qo'yadigan asbob ma'nosidagi *osmoq* so'zi ham:

*Osmoqdin aning qozoni tushmay
Tun-kun o'ti o'chgali yovushmay* (Layli va Majnun).

Shahrisabzdagi o'zbek shevalari tilida hozir ham ishlatiladi. Tole Hiraviy bugungi *echki* so'zini izohlar ekan, XV asr o'zbeklari tilida *gachi* shaklida talaffuz qilinadi deb ko'rsatadi. So'zning bu shakli ham Qashqadaryodagi o'zbeklar tilida qayd qilingan. Navoiy asarlarida uchrovchi *kepanak* so'zi:

*Bir sari sarig' bo'lavmen tutsam yo'l,
Ne tag'u, ne tuz, desang ne abadu, ne cho'l.
Yirtuq kepanakdin chiqarib yalang qo'l,
Ul qochsa-yu men qavsamu, men qachsamu ul.*

Qashqadaryo shevalari tilida astari kigizdan qilingan issiq chakmon ma'nosida hozir ham bor.

Shoir asarlarida qo'l tegirmoni ma'nosidagi *yorg'uchoq* so'zi uchraydi: ... *Hoji andin yorg'uchoq bila un qilib, o'tmak pishurdi* ... (Tarixi anbiyo va hukamo). Yuqoridagi shevalarda bu so'z bugun

ham ishlatiladi.

Shevashunos B.Jo'rayev 1957-yil shahrisabzlik o'quvchi boladan bir ertak yozib olgan. Bolani nutqiga e'tibor berilsa, unda *yo'q bo'lmoq* ma'nosida *itmoq* fe'li uchraganligini ko'ramiz: "*Bir kun beparasatti eshagi **itib** qolibti*". Bu fe'l XV asr o'zbeklari tilida keng ishlatilgan. Quyida tuyuqning to'rtinchi misrasida bu ma'no qayd etilgan:

*Ey raqib, o'zni anga tutsang ham it,
Bizga rahm aylab aning kuyidin it.
Garchi bar do'zaxcha ishqing shu'lasi,
Bizni o'z ilgining bila ul sari **it**.*

"Farhod va Shirin" dostonida *itik* so'zi o'tkir ma'nosida uchraydi:

*Savol etgay sarosar ta'naomez
Itiklik ichra har bir xanjari tez.*

Bu so'zning shu ma'nosi Qashqadaryodagi chig'atoy urug'lari tilida hozir ham ishlatiladi. Navoiy asarlarida qurilish materiallaridan hisoblanuvchi *g'isht* ma'nosida *kirpich* so'zi:

*Mayxonada har sori bir mastki bosh qo'ymish,
Kirpichlari go'yokim jonlarg'a vatanlardur.*

Shu hudud vakillari tilida hozir ham ishlatiladi. Ma'lumki, *o'sma* so'zi shoir asarlarida *vo'sma* shaklida uchraydi:

***Vo'sma** chekib sabza bilan qoshiga
Me'jar etib shabnam ila boshig'a.*

Bu narsa **u** tovushini sheva xususiyati bilan **vu** tarzida talafuz qilinishi bilan bog'liq. Navoiy tilidagi bu xususiyat ham Qashqadaryo shevalarida uchraydi.

Xulosa

Bunday misollarni ko'proq keltirish mumkin edi, lekin shuning o'zi ham Navoiy tilining dialektal asosini aniqlayotganda Qashqadaryo, Surxondaryodagi barlos, qovchin, chig'atoy, qipchoq, chuyut, turkman kabi qabila, urug' va elat tillariga e'tibor berishimiz kerakligini ko'rsatadi. Bu yerda Navoiy tilining dialektal asosini o'rganishda nima uchun Qashqadaryo, Surxondaryodagi barlos, chig'atoy, qovchin, qo'ng'iro't urug'lariga ko'proq e'tibor berish kerak degan haqqoniy savol tug'ilishi mumkin.

O'zbekistonning turli yerlaridagi yashab kelayotgan bu urug'-elatlarning tilini inkor qilmagan holda, Qashqadaryo, Surxon-

daryodagi qovchin, qo'ng'iro't, chig'atoy, barloslar uzoq davr boshqa turkiy urug', elatlardan ajralib yashaganligi uchun tilning qadimgi holatini o'zida ko'proq saqlab qolgan. Shu sababdan O'zbekistonning janubidagi bu urug', elatlarga ko'proq e'tibor berilsa degan fikrdamiz. Qolaversa bu yerda Alisher Navoiyning ota-bobolari barloslar urug'idan ekanligini ham esdan chiqarmasligimiz kerak.

Adabiyotlar

- Alisher Navoiy. 1941. *Xamsa*. Layli va Majnun. Nasriy bayon bilan nashrga tayyorlovchi Amin Umariy va Husaynzoda. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1941. *Xamsa*. Saddi Iskandariy. Mas'ul muharrir Shayxzoda. Toshkent: Uzpolografkombinat.
- Алишер Навоий. 1960. *Хамса*. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1959. *Ғаройиб ус-сиғар*. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1959. *Наводир уш-шабоб*. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1960. *Бадойи ул-васат*. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1960. *Фавойид ул-кибар*. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1966. *Лисон ут-тайр*. Асарлар. 15 томлик. Т.11. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1966. *Мажолисун-нафоис*. Асарлар. 15 томлик. Т.12. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1967. *Муншаот*. Асарлар. 15 томлик. Т.13. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1967. *Муҳокаматул-луғатайн*. Асарлар. 15 томлик. Т.14. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1967. *Мезонул-авзон*. Асарлар. 15 томлик Т.14. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1968. *Тарихи анбиё ва ҳукамо*. Асарлар. 15 томлик. Т.15. Тошкент.
- Боровков, А. К. 1961. *Бадаи ал-лугат*: Словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. Москва.
- Боровков, А. К. 1951. «Из материалов для истории узбекского языка». *Тюркологический сборник* I: 73-79. М-Л.
- Дониёров, Х. 1976. *Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари*. Тошкент.
- Жўраев, Б. 1969. *Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари*. Тошкент.
- Шерматов, А. 1972. *Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари*. Тошкент.
- Шерматов, А. 1978. *Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари*. Тошкент: Фан.

References

- Zhuraev, B. 1969. *Juqori Qashqadarjo uzbek shevalari*. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1941. *Xamsa*. Layli va Majnun. Nasriy bayon bilan nashrga tayyorlovchi Amin Umariy va Husaynzoda. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1941. *Xamsa*. Saddi Iskandariy. Masul muharrir Shayxzoda. Toshkent: Uzpolografkombinat.
- Alisher Navoiy. 1960. *Xamsa*. Nashrga tajjorlovchi P.Shamsiev. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1959. *Garojib us-sigar*. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1959. *Navodir ush-shabob*. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1960. *Badoji ul-vasat*. Toshkent.

- Alisher Navoiy. 1960. *Favojid ul-kibar*. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1966. *Lison ut-tajr*. Asarlar. 15 tomlik. T.11. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1966. *Mazholisun-nafois*. Asarlar. 15 tomlik. T.12. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1967. *Munshaot*. Asarlar. 15 tomlik. T.13. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1967. *Muhokamatul-lugatajn*. Asarlar. 15 tomlik. T.14. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1967. *Mezonul-avzon*. Asarlar. 15 tomlik. T.14. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1968. *Tarihi anbijo va hukamo*. Asarlar. 15 tomlik. T.15. Toshkent.
- Borovkov, A. K. 1961. *Badai al-lugat*: Slovar Tali Imani Geratskogo k sochinenijam Alishera Navoi. Moskva.
- Borovkov, A. K. 1951. «Iz materialov dlja istorii uzbekskogo jazyka». *Tjurkologicheskij sbornik* I: 73-79. M-L.
- Donijorov, H. 1976. *Jeski uzbek adabiy tili va qipchoq dialektlari*. Toshkent.
- Shermatov, A. 1972. *Quji Qashqadarjo uzbek shevalari*. Toshkent.
- Shermatov, A. 1978. *Qashqadarjo oblastidagi uzbek halq shevalari*. Toshkent: Fan.

Muallif haqida: Umarov Ergash Agzamovich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti.

Iqtibos uchun: Umarov, E. A. 2020. "Navoiy davridagi Hirot o'zbeklari tili". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 6–19.

About the author: Ergash A. Umarov – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore under the Uzbekistan Academy of Sciences.

For citation: Umarov, E. A. 2020. "The Language of the Herat Uzbeks in the Navo'i period". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 6–19.